



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2023 - yil «24» - yanvar

64-4-0-Q/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Qashqadaryo viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan
foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi “Davlat mulkini ijara berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 102-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, viloyat hududidagi bo'sh turgan davlat ko'chmas mulklaridan oqilona foydalanish, ularga bo'lgan ehtiyojni to'liq ta'minlash hamda korxona, tashkilot va muassasalarining ijara to'lovidan tushadigan daromadlarni tartibga solish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan taqdim etilgan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan 2022-yil 30-dekabrda kelishilgan Qashqadaryo viloyatida 2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun eng kam ijara to'ovi stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan hududiy zonalar koeffitsiyentlari 2-ilovaga hamda radio, uyali va peydjing aloqa antennalarini (texnik uskunalar) o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara to'ovlarini hisoblash tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi (I. Jo‘rayev)ga qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchi davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari foydalanmasdan turgan davlat mulki to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to‘g‘risidagi axborotni O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga o‘z vaqtida to‘liq taqdim qilinishini ta’minlasin.

4. Tegishli davlat ko‘chmas mulkini balansda saqlovchi tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

har chorakda kamida bir marta o‘zining tasarrufida bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkini to‘liq xatlovdan o‘tkazsin;

tasarrufidagi foydalanilmayotgan davlat ko‘chmas mulki to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasiga o‘z vaqtida to‘liq taqdim etilishini, shuningdek, ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to‘g‘risidagi taqdim etilgan axborotning ishonchligiga shaxsan mas’ul ekanligi;

davlat ko‘chmas mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berish, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va sonini ataylab noto‘g‘ri qayd etilganligi, buning natijasida ijara to‘loving yashirilishiga olib kelganligi uchun bevosita qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Viloyat hokimining 2022-yil 27-fevraldagagi “Qashqadaryo viloyatida 2022-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘loving eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 133-4-0-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror tegishli tartibda e’lon qilinsin, hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023 yil 24 yanvardagi
64-4-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyati ma'muriy markazlari hududida hamda ma'muriy markazlaridan tashqari hududlarida joylashgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023 yilda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'loving eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	Viloyat markazi Qarshi shahri uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavka 1 kv. metrga. (QQS bilan birga)	Viloyatning tumanlari va shaharlari uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavka 1 kv. metrga. (QQS bilan birga)
1	Yoqilg'i ishlab chiqarish	11 900	8 700
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o'g'it mahsulotlari)	11 900	8 700
3	Neft-kimyo sanoati	11 900	8 700
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	11 900	8 700
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
6	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	9 700	7 200
7	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	11 900	7 200
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700

9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	11 900	8 700
10	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	11 900	8 700
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	11 900	8 700
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	37 700	28 300

Qurilish sanoati

16	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	9 700	7 200
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	35 900	26 600
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	63 000	37 300
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	11 900	8 700
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	11 600	8 700
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	37 700	28 300
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	26 700	20 050

O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va syellyuloza-qog'oz sanoati

23	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	11 900	8 700
24	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	11 900	8 700

25	Syellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
Yengil sanoat			
26	To'qimachilik sanoati	11 900	8 700
27	Tikuvchilik sanoati	11 900	8 700
28	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	11 900	8 700
Oziq-ovqat sanoati			
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	11 900	8 700
31	Go'sht mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
32	Sut mahsulotlari sanoati	23 300	17 400
33	Baliq mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
34	Tegirmonchilik sanoati	11 900	8 700
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	9 700	7 200
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
Sanoatning boshqa tarmoqlari			
38	Tibbiyot sanoati	11 900	8 700
39	Poligrafiya sanoati	29 200	25 000

40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	14 600	10 600
----	---	--------	--------

Qishloq xo'jaligi

41	O'simlikshunoslik 1 hektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
42	Issiqxona xo'jaligi	9 000	8 000
43	Chorvachilik va parrandachilik	5 700	4 300
44	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 hektar uchun	4 798 000	3 559 100
45	Asalarichilik 1 hektar yer maydoni uchun	3 119 000	2 313 600
46	Veterinariya xizmatlari	11 900	8 700
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	11 900	8 700
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 hektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100

Transport va aloqa

49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	11 900	8 700
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 000	2 400
51	Avtomobilarni yuvish	38 500	25 100
52	Avtomobilarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	38 500	32 400
53	Avtomobilarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shaxobchalari)	46 800	35 100
54	Elektromobilarni quvvatlash shahobchasi	20 400	15 300
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspedisiya xizmatlari	21 620	16 200

56	Pochta aloqasi	11 900	8 700
57	Kuryerlik aloqasi	24 000	17 700
58	Elektr-simli aloqa	24 000	17 700
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	100 800	74 800

Savdo va umumiy ovqatlanish

60	Ulgurji savdo	33 600	25 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	86 300	63 900
62	Chakana savdo	33 600	25 000
63	Umumiy ovqatlanish	33 600	25 000
64	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	52 600	36 100
65	Kitob do'konlari	4 700	3 600
66	Lombardlar	43 400	32 200

Xizmat ko'rsatish

67	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	33 600	25 000
68	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	33 600	25 000
69	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	50 400	37 500
70	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	33 600	25 000

71	Reklama, ko‘rgazmalar xizmatlari	33 600	25 000
72	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	60 000	44 300
73	Mehmonxona ho‘jaligi	38 400	28 400
74	Umumiy yashash joylari	29 900	21 700
75	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	19 320	14 260
76	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta’mirlash ustaxonasi	28 900	21 700
77	Hammomlar	57 800	42 800
78	Saunalar va basseynlar	115 200	85 500
79	Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	19 300	14 200

Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot

80	Sog‘liqni saqlash	24 000	17 700
81	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	44 200	33 200
82	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	24 000	17 700
83	Fitobar	16 600	12 300
84	Madaniy ko‘ngilochar markazlar (bilyard, o‘yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	38 400	28 400
85	Jismoniy tarbiya va sport	11 900	8 700
86	Dorixonalar	19 300	14 200
87	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do‘konlari	40 400	22 500

88	Ijtimoiy-dorixonalar	17 100	11 500
Ta'lim			
89	Oliy va o‘rta-maxsus ta’limi ma’lumotli kadrlarni tayyorlash	19 320	14 200
90	O‘quv kurslarini tashkil etish	39 600	29 700
91	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	15 065	11 615
92	Bolalar umumta’lim maktablari (nodavlat ta’lim muassasalari uchun)	9 700	7 245
93	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida umumiyligi ovqatlanish	23 400	17 500
94	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumiyligi ovqatlanish	11 900	8 700
95	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta’lim muassasalari uchun)	8 500	6 600
96	Madaniyat va san’at	33 600	25 000
97	Ko‘rgazmalar	25 900	20 100
98	Madaniyat va dam olish bog‘lari	24 000	17 700
99	Botanika bog‘lari va zooparklar	24 000	17 700
100	Televideniylar va radioeshittirishlar redaksiyalari	24 000	17 700
101	Kinostudiylar, ovoz yozish studiyalari	38 400	28 405
102	Fan va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish	14 600	10 600
103	Avtomaktablar	21 300	12 600
Moliya-kredit faoliyati			

104	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	33 600	25 000
105	Auditorlik faoliyati	33 600	23 400
106	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	33 600	25 000
107	Bank faoliyati	33 600	25 000

Faoliyatning boshqa turlari

108	Sug'urta va notarial xizmatlar	33 600	25 000
109	Sud va yuridik xizmat muassasalari	28 900	21 700
110	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	28 900	21 700
111	Jamoatchilik birlashmalari	9 700	7 000
112	Omborxonalar	33 600	25 000
113	Davlat tashkilotlariga ofis	14 600	10 600
114	Xususiy tashkilotlarga ofis	52 600	39 100
115	Arxiv xizmati	14 600	8 900
116	Tahririyat va nashriyotlar	19 300	14 200
117	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	19 300	14 200
118	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	19 300	14 200
119	Yengil avtomashinalar va boshqa turdag'i transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	38 400	28 400

120	Vulkanizasiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	29 200	21 900
121	Laboratoriylar	24 000	17 700
122	Turli xizmat turlari to‘lovlar (paynet)	96 400	71 400
123	Madaniy meros ob’yektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do‘konlari	52 600	39 100
124	Madaniy meros ob’yektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	46 100	34 200
125	Hunarmandchilik turlari bo‘yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o‘ymakorlik, rassomchilik, do‘ppido‘zlik, telpak, cho‘girma, chopon va x.k)	28 400	21 300
126	Avia kassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtovtransport va boshqalar)	52 600	39 100
127	Bankomatlar	480 800	356 600
128	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	33 600	21 700
Izoh:			
<p>- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2012 yildagi №02/1-74-sen topshirig‘iga asosan yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qismlar va muassasalar hududida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining savdo boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalari uchun ko‘chmas davlat foydalanganlik uchun ijara xaqqining "nol" stavkasi qo‘llaniladi.</p>			
<p>- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.07.2014 yildagi 02/107-2670-sen topshirig‘iga asosan 2014 yilning 1 avgustidan boshlab "Tadbirkorlik va ishbilarmonlik xarakati" O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Farg‘ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri (shu jumladan Mirobod tumani) Kengashlari, shuningdek, "XXI asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi balansidagi tegishli davlat mulki ob’yektlaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining "nol" stavkasi belgilangan.</p>			

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017 yildagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 834-son qarori muvofiq, davlat mulki, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki ob'yektlari O'zbekiston Yoshlar ittifoqi a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga O'zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko'p bo'lмаган muddatga ijara to'loving "nol" stavkasi asosida beriladi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2017 yildagi "Farg'ona viloyatida joylashgan ishlamay turgan va kam quvvatli korxonalar faoliyatini tiklash, shuningdek davlat mulki ob'yektlaridan samarali foydalanishni chora-tadbirlari to'g'risida"gi 672-son qaroriga asosan Farg'ona viloyatining tuman (shahar)lari hokimlariga «Davlat mulkini ijaraga berish markazlari» DUK bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun respublika davlat boshqaruva organlariga biriktirib berilgan tuman (shahar) hududida joylashgan foydalanilmayotgan davlat mulki ob'yektlarini (maydonlarni), tegishli tuman (shahar) hokimining murojaatidan so'ng ikki oy muddatda balansda saqlovchilar tomonidan ularni ijaraga berish ta'minlanmagan taqdirda, istisno tariqasida, bir yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga berish to'g'risida qaror qabul qilish huquqi berilsin, bunda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda balansda saqlovchilarga ajratmalar tegishli tuman (shahar) byudjetiga yo'naltiriladi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017 yildagi 14/1-1959-soni topshirig'iga asosan 2018 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o'yinlari g'oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to'loving "nol" stavkasi asosida ajratiladi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2018 yildagi 609-20-soni topshirig'iga asosan, kelgusida Mudofaa vazirligi tomonidan vazirlik tizimidagi o'z faoliyatini iqtisodiy mustaqillik, o'zini o'zi ta'minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradigan davlat unitar korxonalariga, shuningdek vazirlikning boshqa tarkibiy bo'linmalariga binolarni, inshootlarni, joylarni, asbob-ukunalarni, meballarni va boshqa mol-mulkni ijara shartnomasi asosida vaqtinchalik foydalanishga berishda binolardan, inshootlardan, joylardan, asbob-ukunalardan, mebellardan va boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara to'loving nol stavka belgilanadi.
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini va umumiyligi o'rta ta'lim maktablar hududi (ichkarisi)da joylashgan ob'yektlarni (balansida saqlovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va/yoki ta'lim oluvchilar uchun xizmat ko'rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyatlar bo'yicha) ijara xaqi hisoblashda yozgi ta'til davri uchun oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiyligi o'rta ta'lim maktablari 3 (uch) oy muddatga ijara to'lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbusi bilan ijara xaqi hisoblanishi mumkin.

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023 yil 24 yanvardagi
64-4-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**Ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar va ijara
to‘lovlarini hisoblash tartibi**

1. Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz):

№	Shahar va tumanlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsiyenti
1	Qarshi shahri	1	2,5
	Shahrisabz shahri	1	2,5
	Beshkent shahri	2	2,2
	Kitob shahri	2	2,2
	Koson shahri	2	2,2
2	Qarshi tumani	3	1,8
	Koson tumani	3	1,8
	Muborak tumani	3	1,8
	Shaxrisabz tumani	3	1,8
	Kitob tumani	3	1,8
	G‘uzor tumani	3	1,8
	Kasbi tumani	3	1,7
	Chiroqchi tumani	3	1,5
	Ko‘kdala tumani	3	1,5
	Yakkabog‘ tumani	3	1,5
	Nishon tumani	3	1,5
	Qamashi tumani	3	1,5
	Mirishkor tumani	3	1,5
3	Dehqonobod tumani	4	1,2

2. Binoning qurilishiga ko‘ra turi (Kq):

- alohida turgan bino, inshoot 1,5
- binoning ichki qismida joylashgan va taqab qurilgan 1,3
- binoning yuqori qismi, cherdak, bolaxona 0,9
- yertula, yarim yertula 0,5

3. Yondosh hududidan foydalanish koeffitsiyenti (Kh):

- yer maydoni mavjud bo‘lganda 0,8

4. Tijorat yo‘lida foydalanishda qo‘layligi (Ko):

- asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda 0,5
- ikkinchi darajali avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda 0,4
- radio, uyali va peydjing aloqa antennalari o‘rnatilganda 0,5

Binolar va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini (ijara to‘lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish

quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko)$$

Bunda:

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi;

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023 yil 24 yanvardagi
64-4-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Radio, uyali va peydjing aloqa anntenalari (texnik uskunalar)

o‘rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to‘lovlari hisoblash tartibi

1. Davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, bolaxona qismlarida o‘rnatilganda:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko)$$

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiyligi ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiyligi perimetri bo‘yicha hisoblanadi)

Kz - hududiy zona koeffitsiyenti

Kq - 0,9

Kh – 0

Ko – 0,5

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek alohida ajratilgan maydonlarga o‘rnatilganda:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko)$$

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiyligi ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiyligi perimetri bo‘yicha hisoblanadi)

Kz – hududiy zona koeffitsiyenti

Kq – 0

Kh – 0,8

Ko – 0,5

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalar o‘rnatilganda:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko)$$

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka

Kz – hududiy zona koeffitsiyenti

Kq – 1,3

Kh – 0

Ko – 0,5